

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XONNAZAROVA MAMLAKAT TO‘LQINOVNA

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA ZOOLOGIYA FANINI O‘QITISH
METODIKASINI MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH
(SUYAKLI BALIQLAR SINFI MISOLIDA)**

13.00.02 - Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Xonnazarova Mamlakat To'liqinova

Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini o'qitish metodikasini mediatekhnologiyalar asosida takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfi misolida)..... 3

Хонназарова Мамлакат Тулкиновна

Совершенствование методики преподавания предмета зоология на основе медиатехнологий в высших учебных заведениях (на примере костных рыб)..... 21

Khonnazarova Mamlakat Tulkinovna

Improving the methodology of teaching the subject of zoology based on media technologies in higher educational institutions (on the example of bony fish)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XONNAZAROVA MAMLAKAT TO‘LQINOVNA

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA ZOOLOGIYA FANINI O‘QITISH
METODIKASINI MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH
(SUYAKLI BALIQLAR SINFI MISOLIDA)**

13.00.02 - Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4596 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saparov Kalandar Abdullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Isakulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Eshmuratov Roxat Artikbaevich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «25» avgust kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№146-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «11» avgust kuni tarqatildi.
(2023 yil «11» avgustdagi №2-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K. Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

Ya.I. Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda ta'lim sivilizatsiyasining yaxlit barqaror taraqqiy etishi negizida bilim olish orqali faoliyatli-kompetentli ta'lim paradigmasiga o'tish zarurati, jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabning kundan-kunga oshib borishiga olib kelmoqda. Mediata'lim (Media Education) dunyodagi ta'lim muassasalarida xalqaro ta'lim, fan va madaniyat tashkilotlari YUNESKO (UNESCO), aloqalar va ma'lumotlar almashinuvi markazi (Centre de liaison de l'enseignement et des medias d'information – Fransiya), Institute fur Film Und Bild im Wissenschaft - Germaniya, The University Southampton - Buyuk Britaniya, shuningdek, maxsus mediamarkazlar – Center for Media Education)da o'zaro tajribalar almashish orqali amalga oshirilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq mediatexnologiyalar orqali kompetentligini ta'minlash muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, xususan, AQSh, Avstraliya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda talabalarda tabiiy fanlarni mediatexnologiyalar asosida o'qitishning sifat darajasini oshirish va takomillashtirish, mediatexnologiyalar yordamida o'qitishning zamonaviy hamda an'anaviy usullaridan barcha imkoniyatlarni safarbar qilgan holda foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Oliy ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashning metodik, mediatexnologiyalar yordamida ta'lim olishning axborot-kommunikatsion ta'minotini, ta'lim olishdagi imkoniyatlarini orttirish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining jahon standartlari darajasida o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat yurita oladigan, ijtimoiy va kasbiy mobil, kompetentligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega pedagog sifatida kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish zarur¹.

Mamlakatimizda "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash", ish beruvchilarning talab va ehtiyojlariga mos mutaxassisliklar bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yurtimizda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti talablariga mos holda modernizatsiyalash, yuqori kompetentlik darajasi, yuksak salohiyatli pedagog o'qituvchilar tayyorlash va eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida yanada takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, metodik kompetensiyalarini rivojlantirish

¹ Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.

orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 8-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda talabalarni mediatexnologiyalar asosida o‘qitishga doir amaliy va fundamental tadqiqotlar, mediata’lim muhitini tashkil etishda elektron axborot ta’lim resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda mediata’lim muammolari S.Beknazarova, S.Babadjanov, Y.Mamatova, S.Sulaymanovlar; ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslari bo‘yicha A.Abduqodirov, A.X.Pardayev, M.M.Aripov, B.Begalov, U.Sh.Begimkulov, R.R.Boqiyev, F.M.Zakirova, M.X.Lutfillayev, M.M.Mamarajabov, N.I.Taylaqov, N.J.Isakulova, S.K.Tursunov, U.Y.Yuldashev, A.A.Hayitovlar; zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish masalalari N.N.Azizxodjayeva, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, N.A.Muslimov, J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, N.Sayidahmedov, O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, D.A.Xidoyatovlar; “Zoologiya” fanini o‘qitishni O.Mavlonov, N.Toshmanov, S.Dadayev, K.Saparov, P.B.Haydarova, M.Yo‘ldasheva, A.Qulmamatovlar; “Biologiya” fani darslarida texnik vositalar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalalari A.T.G‘ofurov, J.Tolipova,

² O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni. 2020 yil 6 noyabr.

S.S.Fayzullayev, M.N.Ibodova, G.Ergasheva, L.Qoraxonova, M.Ongarovlarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida ta'lim amaliyotiga mediata'limni joriy etish muammolari A.A.Jurin, I.A.Fateyeva, A.V.Fyodorov, A.V.Sharikov, V.A.Vozchikov, E.A.Bondarenko va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy tadqiqotchilardan ta'lim jarayonlarini mediatexno-logiyalar asosida tashkil etish borasida L.Masterman, Baake, Kubler, A.Dorr, B.Duncan, R.Kubey, S.Minkinen, A.Silverblatt, Ms.B.Mahon, W.Potter, C.M.Worsnop kabilar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Biroq, tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy izlanishlar va mavjud adabiyotlar tahlillariga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" fani (suyakli baliqlar sinfi misolida)ni mediatexnologiyalar asosida o'qitish samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim jarayonining ilmiy-metodik ta'minotini yanada takomillashtirish bugungi zamon talablariga mos darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universitetida PZ-20170923121-raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" fanini (suyakli baliqlar sinfi misolida) o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mediatexnologiyalarning tashkiliy komponentlari yordamida "Zoologiya" fani(suyakli baliqlar sinfi misolida)ga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini takomillashtirish;

suyakli baliqlar sinfini o'qitishda bo'lajak biologiya o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari va darajalarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitish modelini takomillashtirish;

"Zoologiya"ni mediatexnologiyalar asosida o'qitishning metodik ta'minotini sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida suyakli baliqlar sinfini o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish jarayoni olinib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti va Qoraqalpoq davlat universitetlarining jami 478 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalarida suyakli baliqlar sinfini o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili; bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini kuzatish, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, modellash, so'rovnomalar, test, suhbat shuningdek, olingan natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

suyakli baliqlar sinfiga oid metodik, ijtimoiy, kreativ, pedagogik, psixologik, individual, kommunikativ, innovatsion mediatexnologiyalari orqali bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy rivojlanish traektoriyasi o'qitish omillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari va darajalari interfaol va kreativ topshiriqlar tizimiga ustuvorlik berish orqali mediatexnologiyalar vositasida suyakli baliqlar sinfini o'qitishi takomillashtirilgan;

"Zoologiya" fanini mediatexnologiyalar vositasida o'qitish modeli raqamli tabiiy ta'lim transformatsiyasida raqamli ko'nikma va malakalarni rivojlantirish mexanizmi bo'yicha dasturlashtirilgan o'quv-metodik ta'minot orqali takomillashtirilgan;

suyakli baliqlar sinfini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning metodik ta'minotining tarkibiy-mazmuniy komponentlari qadriyat-semantik komponentini kiritish orqali xyutogogik paradigma tamoyillari orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" (suyakli baliqlar sinfi) fanini o'qitish jarayonida talabalarning mediasavodxonligini oshirishga xizmat qiladigan elektron axborot ta'lim resurslari yaratilgan;

"Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish" elektron darsligi va mobil ilovasi ishlab chiqilgan;

"Zoologiyadan 888 qiziqarli savol-javoblar" nomli uslubiy qo'llanmasi nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda xorijiy va OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respublika va xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar hamda nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mediata'lim yo'nalishlari, "Suyakli baliqlar sinfi"ni o'qitishda mediatexnologiyalarning xususiyatlari, "Zoologiya" fanini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishga oid resurslari, mediata'lim usullari, mediatexnologiyalar asosida o'qitishning asosiy omillari, mediatexnologiya turlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" fanini o'qitish metodikasi, ishlab chiqilgan "Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish" elektron darsligi va mobil ilovasidan foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini o'qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfi misolida) bo'yicha erishilgan natijalari asosida:

suyakli baliqlar sinfiga oid metodik, ijtimoiy, kreativ, pedagogik, psixologik, individual, kommunikativ, innovatsion mediatexnologiyalari orqali bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy rivojlanish traektoriyasi o'qitish omillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan I-OT-2019-8 – "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-yanvardagi 02-07-261/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarining takomillashgan tizimini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari va darajalari interfaol va kreativ topshiriqlar tizimiga ustuvorlik berish orqali mediatexnologiyalar vositasida suyakli baliqlar sinfini o'qitishi takomillashtirilgan xulosa va takliflardan I-OT-2019-8 – "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-yanvardagi 02-07-261/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Zoologiyadan 888 qiziqarli savol-javoblar" nomli uslubiy qo'llanmasi yaratilgan;

"Zoologiya" fanini mediatexnologiyalar vositasida o'qitish modeli raqamli tabiiy ta'lim transformatsiyasida raqamli ko'nikma va malaklarni rivojlantirish mexanizmi bo'yicha dasturlashtirilgan o'quv-metodik ta'minot orqali takomillashtirilgan xulosa va takliflardan I-OT-2019-8 – "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-yanvardagi 02-07-261/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ta'lim jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish imkoni sezilarli darajada oshirilgan;

suyakli baliqlar sinfini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning metodik ta'minotining tarkibiy-mazmuniy komponentlari qadriyat-semantik komponentini kiritish orqali xyutogogik paradigma tamoyillari orqali takomillashtirilgan xulosa va takliflardan I-OT-2019-8-raqamli "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy (fizika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 30-yanvardagi 02-07-261/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Zoologiya" elektron darsligi va "Suyakli baliqlar" mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-metodik ishlar, jumladan, 1 ta elektron darslik, 1 ta mobil ilova, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarining chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotga

O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar qismidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilib, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotnatijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Zoologiya” fanini o‘qitish amaliyotidagi muammolar, mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta‘minotini takomillashtirish masalalari hamda “Zoologiya” fanini o‘qitishda talabalar mediasavodxonlik kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-shart sharoitlari tahlil qilingan.

Oliy ta’lim muassasalarida “Zoologiya” fanini o‘qitishning asosiy vazifalari etib quyidagilarni keltirish mumkin:

talabalarga hayvonlarning tuzilishi, o‘sishi, rivojlanishi va hayot kechirishi qonuniyatlari to‘g‘risida bilim berish;

talabalarni vatanparvarlik, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish;

talabalar ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish³;

talabalarning kasbiy yo‘nalishdagi bilimlarini yanada boyitish;

“Zoologiya” faniga oid qonuniyatlar asosida talabalarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, atrof-muhit muhofazasiga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish va b.

Tadqiqot muammosiga doir olib borilgan izlanishlar natijasida “Zoologiya” ta’limi amaliyotining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu fanni o‘qitishda bir nechta muammolar mavjud ekan. Ushbu muammolarni quyidagicha tasnifladik:

ta’lim muassasalarida “Zoologiya” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borish uchun laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, mavjudlari ham talabga javob bermasligi;

fan o‘qituvchilari tomonidan dars jarayonlarida mavjud laboratoriya jihozlaridan (agar mavjud bo‘lsa) unumli foydalanilmaslik;

fan bo‘yicha mediatexnologiyalardan samarali foydalanmaslik;

³ Mavlonov O., Xurramov Sh., Eshova X. Umurtqasizlar “Zoologiya”si. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent: OFSENT-PRINT, 2006. – 5-6-b.

mavzularga doir elektron axborot ta'lim resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, mobil ilovalar, multimedia ilovalari, taqdimotlar va b.) ning yetarli darajada yaratilmaganligi;

biologiya fani xonalarining yetishmasligi;

zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanmaslik.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishda media, ya'ni internet, televideniye, radio, kino, video va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish samarali ekanligi o'z isbotini topmoqda⁴. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimida ham mediatexnologiyalar asosida elektron axborot ta'lim resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, mobil ilovalar, elektron nazorat testlari, multimedia ilovalari va b.)ni yaratib, ta'lim oluvchilarga sifatli va zamonaviy ta'lim berishning ijobiy xususiyatlari haqida juda ko'plab ma'lumotlar va fikrlar keltirish mumkin.

Media atamasi lotinchada "medium", ya'ni vosita, usul degan ma'nolarni anglatib, turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini bildiradi. A.A.Jurinning fikriga ko'ra "media" – lotincha "media" so'zidan olingan bo'lib, "vosita", "vositachi", yanada aniqrog'i, "ommaviy axborot vositalari" degan ma'nolarni anglatadi⁵. Shuningdek u mediata'lim tushunchasini quyidagicha izohlaydi, mediata'lim – bu:

a) pedagogik fan bo'lib, u – ommaviy axborot vositalari (OAV)ning bolalar va o'smirlarga ta'sirini o'rganadi va ta'lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan tanishtirishga tayyorlashning nazariy masalalarini ishlab chiqish; b) o'qituvchi va o'quvchilarning amaliy hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bolalar va o'smirlarni OAVdan foydalanishga, OAVning madaniyatdagi roli va dunyoni qabul qilishga tayyorlash; v) ta'lim sohasi – uning mazmuni – OAVning madaniyatdagi roli, dunyoni qabul qilishi haqida bilimlar va OAV axborotlari bilan samarali ishlash⁶.

AQShda ham ta'lim tizimida mediatexnologiyalardan foydalanishni keng joriy etish maqsadida bir nechta assotsiatsiyalar tashkil etilgan bo'lib, ularga Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi (Senter for Media Literacy), Vashington, Nyu-Yorkdagi "Ta'lim videomarkazi" (Educational Video Center), Nyu-Meksikadagi "Mediata'lim markazi" (Center for Media Education), San Fransiskodagi "Mediasavodxonlik bo'yicha strategiya" (Strategies for Media Literacy) assotsiatsiyasi, Shimoliy Karolinadagi "Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro" harakati, va Milliy alyans mediasan'ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Mediatexnologiya tushunchasini ayrim holatlarda "mediasavodxonlik", "axborot savodxonligi", "vizual savodxonlik" deb ham foydalaniladi. Misol uchun "axborot savodxonligi" tushunchasi ko'proq holatlarda kutubxona, kompyuter va medianing raqamli turlari bilan bog'liq holda foydalaniladi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida esa ko'p hollarda "Mediasavodxonlik" tushunchasi uchraydi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni mediatexnologiyalar vositasida o'qitishni muntazam takomillashtirib borish ularning kreativlik, ilmiy va shaxsiy tajribalarining murakkab sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Rossiya va Amerika

⁴ To'liq E. Mediata'lim: yangi ta'lim usuli sifatida. – Toshkent, 2018. Elektron resurs: www.sharh.uz 36-37-b.

⁵ Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 405-406

⁶ Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 411-413.

tadqiqotchilarining olib borgan ilmiy izlanishlarida mediata'lim usullari bilim olish manbasiga ko'ra tasniflangan.

“Suyakli baliqlar sinfi”ni o'qitishda mediatexnologiyalarning bugungi kun talabi va vazifalariga ko'ra bir nechta xususiyatlarini ajratishimiz mumkin:

1. Media-axborotlar orqali “Suyakli baliqlar sinfi”ga oid materiallarni boyitish va samarali ishlash ko'nikmasini shakllantirish mexanizmi sifatida;


2. O'qituvchining samarali metodik faoliyati asosida talabalarda mediaaxborotlar orqali “Suyakli baliqlar sinfi”ni mukammalroq o'rganish, tushunishdagi o'rni va ahamiyatini oshiruvchi omil sifatida;

3. Mediatexnologiyalar – suyakli baliqlarga doir voqea-hodisalar (ularning yashash sharoiti, tarqalishi, ko'payishi, tashqi ko'rinishi, hazm qilish sistemasi va h.k.)ning mohiyatini makon va zamonda tez anglatuvchi, oson tushuntiruvchi manba sifatida;

4. Talabalarda keng qamrovli informatsiyalarni qisqa muddatda qayta ishlash, sintez qilish imkonini yaratuvchi omil sifatida va h.k.

Quyida biz oliy ta'lim muassasalarida “Zoologiya” fanini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishga oid resurslarni keltiramiz (1-rasmga qarang):

“Zoologiya” fanini o'qitishda ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish orqali talabalarining mediasavodxonlik darajalarini rivojlantirish eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Quyida “Zoologiya” fanini o'qitishning ilmiy-metodik ta'minoti ijtimoiy, metodik, kreativ, innovatsion, informatsion, mediatexnologik, pedagogik, kommunikativ, psixologik mediatexnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.



1-rasm. “Zoologiya” fanini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishga oid resurslar

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "mediakompetentlik" tushunchasi bir ma'noli bo'lmasdan, uni turli xil nuqtayi nazardan, ya'ni, shaxsning axborot madaniyati va axborot savodxonligining hamda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilari qatoriga kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, ta'lim makoni subyektlarining faol ijtimoiy pozitsiyasi va motivatsiyasining ifodalanganligi, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarning barchasi kiritiladi. Tadqiqotimiz davomida biz "Zoologiya" fanini o'qitishda talabalar va fan o'qituvchisi mediakompetentligining uchta darajasini ajratdik (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Talabalar va fan o'qituvchisi mediakompetentligining darajalari

№	Darajalar	Darajalar mazmuni
Talabalar mediakompetentligining darajalari		
1.	bazaviy (tayanch) daraja	ushbu darajada axborot savodxonligi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'planadi. Mediatexnologiya vositalaridan foydalanish minimal elektron ko'rinishdagi axborotni yaratish, saqlash, tahrir qilish, nusxa ko'chirish va ko'chirishning umumiy usullarini egallash, internet tarmog'ida axborotni izlash ko'nikmalarini egallash, taqdimot texnologiyalari yordamida axborotni taqdim qilish va h.k.
2.	texnologik daraja	bu darajada elektron axborot ta'lim vositalari amaliy faoliyatning instrumentiga aylanadi. Internet-resurslarning interaktivligi va axborotlilikini maqsadli predmet sohasi nuqtayi nazaridan baholash, global internet tarmog'i resurslari va dasturiy vositalarini asosiy texnologik, iqtisodiy va texnik talablarni hisobga olgan holda tahlil qilish, internet tarmog'ida dasturiy-texnologik va axborot ta'minotini taqdim etish sifati, vosita va shakllarini tahlil qilish
3.	amaliy daraja	bunda axborot faoliyatini amalga oshirish uchun yangi vositalarni ishlab chiqish haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq
Fan o'qituvchisi mediakompetentligining darajalari		
1.	bazaviy daraja	fan o'qituvchisiga umumiy vazifalarga asoslangan elektron ta'lim vositasida ta'lim vazifalarini bajarish uchun zaruriy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar invarianti
2.	fanga yo'naltirilgan daraja	mediata'lim vositalarini puxta o'zlashtirishga erishish va o'quv faoliyatiga ixtisoslashtirilgan, fan mazmuni va metodikasi talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan, resurslar va texnologiyalarni joriy etishga tayyorgarlik

3.	pedagogik- psixologik, metodik, ijodiy daraja	o'quv vazifalariga xos bo'lgan mediavositalarini ishlab chiqish, mediatexnologiyalardan kasbiy va shaxsiy vazifalarni hal qilishda foydalanishni farqlash mumkin
----	--	--

Oliy ta'lim muassasalarida "Zoologiya" fanini mediatexnologiyalar vositasida takomillashtirish, mediamahsulotlarga doir bilimlardan samaraliroq foydalanish, bu borada mavjud yutuq va kamchiliklarni, ularni ta'lim jarayonlariga tadbiq etish va shu orqali talabalarning mediasavodxonligini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalarida suyakli baliqlar sinfini mediatexnologiyalar asosida o'qitish tizimi**" deb nomlangan ikkinchi bobida "Zoologiya" fanini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish mazmuni, elektron darslik va mobil ilovalardan foydalanish yo'llari hamda mediatexnologiyalar vositasida o'qitishni takomillashtirish modeli yoritilgan.

Suyakli baliqlar sinfi vakillari Yer yuzidagi barcha suv havzalarida tarqalgan. Suyakli baliqlar umurtqali hayvonlar kenja tipi orasida 20 mingga yaqin turlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, baliqlar katta sinfiga kiruvchi turlarning 95% idan ortig'i suyakli baliqlar sinfiga kiradi. Suyakli baliqlarning terisida suyak, ayrimlarida ganoid va kosmoid tangachalar rivojlangan. Ularda plakoid tangachalar umuman bo'lmaydi. Ba'zi turlarida terisi yalang'och bo'ladi. Skeleti hamma vaqt u yoki bu darajada suvaklashgan. Jabralari ustidan suyakli jabra qopqog'i bilan yopilgan (2-jadvalga qarang):


2-jadval

Suyakli baliqlar sinfi

№	Suyakli baliqlar kenja sinfi	Suyakli baliqlar katta turkumlari	Turkum vakillari
1.	Shu'laqanotlilar (<i>Actinopterygii</i>)	Ganoidlar (<i>Ganoidomorpha</i>)	osyotrsimonlar yoki baqrasimonlar (<i>Acipenseriformes</i>)
			ko'pqanotlisimonlilar (<i>Polypteriformes</i>)
			amiyasimonlar (<i>Amiiformes</i>)
			kaymanlar yoki kosali (<i>Panserli</i>) cho'rtanlar (<i>Lepisosteiformes</i>)
		Suyakdor baliqlar (<i>Teleostei</i>)	Seldsimonlar (<i>Clupeiformes</i>)
			losossimonlar (<i>Salmoniformes</i>)
			karpsimonlar, ya'ni zog'orasimon baliqlar (<i>Cypriniformes</i>)
			laqqasimonlar (<i>Siluriformes</i>)
			ilonsimon baliqlar, ya'ni ugorlar (<i>Anguilliformes</i>)
			cho'rtansimon baliqlar (<i>Esociformes</i>)
			Kefalsimonlar (<i>Mugiliformes</i>)

			Sargansimonlar yoki uchar baliqlar (<i>Beloniformes</i>)
			Tikanbaliqsimonlar (<i>Gasterosleiformes</i>)
			Olabug‘asimonlar yoki okunsimonlar (<i>Perciformes</i>)
			Treskasimonlar (<i>Gadiformes</i>)
			Kambalasimonlar (<i>Pleuronectiformes</i>)
			Oyoqqanotlilar (<i>Pediculati</i>)
2.	Kurakqanotlilar (<i>Sarkopterygii</i>)	Ikki xil nafas oluvchilar (<i>Dipnoi</i> yoki <i>Dipneustomorpha</i>)	Shoxtishlilar yoki bir o‘p kalilar (<i>Ceratodontidae</i> , yoki <i>Monopneumo-nas</i>)
			Tangachalilar yoki Qo‘sh o‘pkalilar (<i>Lepidosirenidae</i> yoki <i>Wpneunumas</i>)
		Panjaqanotlilar (<i>Cmssopterygii</i>)	Selakantsimonlar (<i>Caelocanthiformes</i>)
			latimeriyalar (<i>Latimeriidae</i>)

Suyakli baliqlar sinfini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish mazmuni quyidagicha o‘rganildi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Suyakli baliqlar sinfini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish mazmuni

Oliy ta’lim muassasalarida “Zoologiya” faniini o‘qitishda “Venna diagrammasi”, “Assesment”, “BBB”, “Rezyume”, “Muammo”, “Sinkveyn”, “Zinama-zina”, “Score”, “Charxpalak”, “T-jadval”, “Qarorlar shajarasi”, “Xulosalash”, “SWOT-tahlil”, “Insert”, “Klaster”, “Tushunchalar tahlili” kabi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Elektron darslik – ma’lum bir tuzilmaga ega bo‘lib, unda kerakli ma’lumotni izlash, qisqa muddatda ochish, umumlashtirish, takrorlash kabi funksiyalarga ega bo‘lgan elektron resursdir. “Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o‘qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish” elektron darsligi talabalar nafaqat oliy ta’lim muassasalarida, balki peadgogik faoliyatlarida ham foydalanishlari mumkin. Elektron darslikka kiritilgan materiallar oliy va professional ta’lim muassasalari o‘quv dasturi mavzulariga ham moslashtirilgan.

“Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o’qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish” elektron darsligi “Ma’ruzalar materiallari”, “Laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar”, “Taqdimotlar”, “Qizil kitob”, “Videodarslar”, “Nazorat testlari”, “Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati”, “Muallif” komponentlardan tashkil topgan (3-rasmga qarang):




3-rasm. Elektron darslikning asosiy oynasi

Elektron darslikning “Ma’ruza materiallari” oynasida 6 ta mavzu bo’yicha ma’lumotlar kiritilgan. “Laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar” oynasida “Zoologiya” fani bo’yicha talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlovchi amaliy va laboratoriya topshiriqlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, baliqlar (*Pisces*) katta sinfi, tog’ayli baliqlar (*Chondrichthyes*) sinfi, tikanli akulaning tashqi tuzilishi va skeleti, suyakli baliqlarning tashqi tuzilishi va skeleti, tirik zog’ora baliqni ichki tuzilishini o’rganish bo’yicha topshiriqlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu qismda har bir amaliy va laboratoriya topshiriqlari yakunida mustahkamlovchi savollar hamda baholash tizimi keltirilgan. Foydalanuvchi uchun ushbu ma’lumotlarni shu jarayonni o’zida chop etish va undan tarqatma materiallar sifatida foydalanish imkoniyati mavjud. “Taqdimotlar” oynasida OTM talabalari va umumta’lim maktablari talabalari uchun mavzular asosida tayyorlangan taqdimotlar joylashtirilgan. “Videodarslar” oynasida “Bandicam” dasturi yordamida tayyorlangan videodarslar joylashtirilgan. Foydalanuvchilar ushbu videodarslarni telefon yoki kompyuter qurilmalariga ko’chirib olib, ta’lim jarayonlarida foydalanishlari mumkin. “Nazorat testlari” oynasida mavzular bo’yicha Ispring dasturida tayyorlangan 11 turdagi testlar kiritilgan bo’lib, talabalarning fan yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

“Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o’qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish” mobil ilovasi OTMning biologiya ta’lim yo’nalishi talabalari, umuta’lim muassasalarining “Biologiya” fani o’qituvchilari hamda biologiya faniga qiziquvchilar uchun mo’ljallangan. Ushbu mobil ilova “Biologiya” fani darslarining yangi ma’lumotlarga

boy bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarning faolligini oshiradi. Ilovada keltirilgan ma’lumotlar fan o‘qituvchilari uchun yordamchi manba bo‘lib, ular darslikdagi ma’lumotlar bilan chegaralanmasdan, biologiya faniga doir eng yangi ma’lumotlardan xabardor bo‘ladilar (4-rasmga qarang):




4-rasm. “Suyakli baliqlar” mobil ilovasi ko‘rinishi

Mobil ilovaning ma’ruzalar qismida suyakli baliqlar sinfiga doir ma’lumotlar keltirilgan. “Amaliy, laboratoriya va mustaqil ta’lim topshiriqlari” oynasi talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlashda amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarishi orqali ko‘nikma va malakalarni takomillashtiradi. Mobil ilovada “Baliqlar ensiklopediyasi” oynasi ishlab chiqilib, talabalar yer yuzi va mamlakatimiz hududida yashovchi baliqlar haqida to‘liq ma’lumot olinadi. Mobil ilovaning qiziqarliligini oshirish maqsadida “Qiziqarli faktlar” oynasi tashkil etilib, talabalar baliqlar haqidagi qiziqarli ma’lumotlar hamda O‘zbekistonda intraduksiya qilingan baliqlar to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, mobil ilovada maktab “Biologiya” fani o‘qituvchilari va OTM biologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun suyakli baliqlar sinfi mavzulariga doir tayyorlangan taqdimotlar kiritilgan.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida mediatexnologiyalardan unumli va samarali foydalanish talabalarining o‘quv materialini tez va oson usulda o‘zlashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

“Zoologiya” fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish modeli mediakompetentlikka ega talabalarni tayyorlashga qaratilgan (5-rasmga qarang):



5-rasm. "Zoologiya" fanini mediatexnologiyalar vositasida o'qitishni takomillashtirish modeli

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida pyedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari va uning natijalari yoritilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishi uchta bosqichda o‘tkazildi:

1) birinchi bosqich – aniqlovchi (shakllantiruvchi), 2019-2020-yillar (izlanish-tayyorgarlik bosqichi);

2) ikkinchi bosqich – ta’kidlovchi, 2020-2021-yillar (tajriba-sinov materiallarini taqdim etish va sinovdan o‘tkazish).

3) uchinchi bosqich – yakunlovchi 2021-2022-yillar (universitet talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini pedagogik diagnostikalash samaradorligini tahlil qilish).

Pedagogik tajriba-sinov maydonlari sifatida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qoraqalpoq davlat universitetining biologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 478 nafar 2-bosqich talabalari tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etdi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv fanlari orasidagi fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning ishlab chiqilgan uslubiyoti samaradorligining miqdoriy mezonlari bo‘lib quyidagilar tanlandi hamda student mezonini yordamida tahlil qilindi.

Hisoblab chiqilgan sonli ma’lumotlar quyida keltiriladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari va xulosalar

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba-sinov guruhida		Nazorat guruhida	
		Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O‘rtacha arifmetik qiymat ($\bar{x}, \bar{y}$)	3,50	3,85	3,47	3,50
2	Samaradorlik ko‘rsatkichi η	1,10		1,01	
3	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i a_x, a_y	[3,41; 3,58]	[3,76; 3,95]	[3,39; 3,56]	[3,42; 3,58]
4	O‘rtacha qiymat standart xatolik (S_x, S_y)	0,66	0,73	0,66	0,67
5	Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)	1,22	1,22	1,23	1,23
6	Student statistikasi (T)	5,65		0,42	
7	Ko‘rsatkichlar xulosasi	N_0 gipoteza qabul qilinadi		N_1 gipoteza qabul qilinadi	

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarning bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,01 (10%) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSALAR

“Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya fanini o’qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfi misolida)” mavzusidagi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Oliy ta’lim tizimida “Zoologiya” fanini (suyakli baliqlar sinfi misolida) o’qitish davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlarini, ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan davlat talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliyotga joriy etilishi ijobiy natijalarga erishishda dolzarb ahamiyat kasb etishi tajriba-sinov jarayonida o’z tasdig’ini topdi.

2. Biologiya ta’lim yo’nalishida “Zoologiya” fanini (suyakli baliqlar sinfi misolida) o’qitish sifatini baholash mezon va ko’rsatkichlari ta’limni axborotlashtirish, ijtimoiy buyurtma va kasbiy faoliyatning o’ziga xosliklarini hisobga olgan holda takomillashtirildi.

3. Biologiya ta’lim yo’nalishida tahsil oluvchi talabalarning ratsional o’quv harakatlari ko’rsatkichlari: o’zini o’zi baholash, dars mashg’ulotlari jarayonida murakkab masalalarni yechishda mediatexnologiyalar asosida kommunikativ kompetensiyani egallash darajasiga ko’ra talabaning mustaqil bilim olish jarayonidagi individualligining o’zaro muvofiqligi asoslandi.

4. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida “Zoologiya” fani (suyakli baliqlar sinfi misolida) darslarni eng ilg’or texnologiyalar asosida sifatli va samarali tashkil etish, talabalarning mediatexnologiyalarni bilish va ulardan to’laqonli foydalanish darajalarini oshirish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish zarur.

5. Pedagogik tajriba natijalarini matematik statistik usul yordamida qayta ishlash natijasida ma’lum bo’ldiki, tadqiqotimizda ilgari surilgan ilmiy g’oyamiz o’z tasdig’ini topganligi statistik jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot ishi vazifalari asosida “Zoologiya” fanini (suyakli baliqlar sinfi misolida) o’qitish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish samaradorligini tekshirish bo’yicha o’tkazilgan tajriba-sinov ishining yakuni uning samaradorligini tasdiqlaganligini ko’rsatdi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Zoologiya” (suyakli baliqlar sinfi misolida) fanini o’qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar taklif qilindi:

1. Oliy ta’lim tizimida rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalaridan foydalanish;

2. “Zoologiya” fanini (suyakli baliqlar sinfi misolida) o’qitishda foydalaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni amalda qo’llay olish malakalarini takomillashtirish va yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish;

3. Biologiya fani turkumidagi boshqa fanlardan ham mediatexnologiyalar vositasida o’qitishning ilmiy-metodik ta’minotini ishlab chiqish va ularning o’qitish intensivligini oshiruvchi mediatexnologiyalarni joriy etish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.12.2019.B.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОННАЗАРОВА МАМЛАКАТ ТУЛКИНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА
ЗООЛОГИЯ НА ОСНОВЕ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ
(НА ПРИМЕРЕ КОСТНЫХ РЫБ)**

13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (биология)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.1.PhD/Ped4596.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Сапаров Каландар Абдуллаевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Исакулова Нилуфар Жаникуловна
доктор педагогических наук, профессор

Ешмуратов Рохат Артикбаевич
кандидант биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Чирчикский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «25» августа 2023 г. в 10⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsuinfo@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №146). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78.

Автореферат диссертации разослан «11» августа 2023 года.
(реестр протокола рассылки №2 от «11» августа 2023 года.



М.А.Жуманов
Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов
Учсний секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.б.н., доцент

Я.И.Аметов
Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире необходимость перехода к парадигме деятельностно-компетентностного образования посредством получения знаний на базе целостного устойчивого развития образовательной цивилизации приводит к тому, что спрос на конкурентоспособные кадры, соответствующие современным тенденциям развития общества, растет изо дня в день. Медиаобразование (Media Education) осуществляется посредством обмена опытом в образовательных учреждениях по всему миру, международных образовательных, научных и культурных организациях ЮНЕСКО (UNESCO), Центре коммуникаций и обмена информацией (Centre de liaison de l'Enseignement et des medias d'information – Франция), Institute fur Film und Bild im Wissenschaft - Германия, The University Southampton - Великобритания, а также в специализированных медиацентрах - Center for Media Education. Особую актуальность приобрела проблема обеспечения компетентности будущих специалистов посредством медиатехнологий в соответствии с требованиями современного научно-технического развития.

В ведущих высших учебных заведениях мира, в частности в таких странах, как США, Австралия, Германия, Франция, Великобритания, большое значение уделяется повышению и совершенствованию качественного уровня преподавания естественных наук на основе медиатехнологий, использованию современных и традиционных методов обучения с помощью медиатехнологий мобилизовав все возможности. Осуществляются всеобъемлющие научные исследования в сфере организации и обновления содержания высшего образования на основе современных требований, обеспечения интеграции с наукой и производством, методического, информационно-коммуникационного обеспечения подготовки будущих учителей биологии с помощью медиатехнологий, повышения образовательного потенциала в обучении. В настоящее время на основе компетентностного подхода в соответствии с современными образовательными тенденциями необходимо совершенствовать профессионально-методическую подготовку будущих учителей биологии как педагогов, способных осуществлять педагогическую деятельность по специальности на уровне мировых стандартов, социально и профессионально мобильных, обладающих высокими показателями компетентности.¹

В нашей стране проводятся широкомасштабные работы по “дальнейшему совершенствованию системы непрерывного образования, повышению возможностей качественных образовательных услуг, подготовке высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда”, подготовке педагогических кадров по специальностям, соответствующим требованиям и потребностям работодателей, а также повышению качества и эффективности педагогической деятельности в

¹ О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, проводимых в стране. Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-3775. 5 июня 2018 г.

